**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G‘.I. Muxamedov
____________________
2024-yil __________________

# O‘ZBEK ADABIYOTI
## O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Ta’lim |
| Ta’lim sohasi: | 110000 – Ta’lim |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60110700 – O‘zbek tili va adabiyoti |

**Chirchiq – 2024**

| Fan/modul kodi<br>O'A1316<br>O'A1416 | O'quv yili<br>2025-2026 | Semestr<br>3-4 | ECTS - Kreditlar<br>4-4 |
|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | Ta'lim tili<br>O'zbek | | Haftadagi dars soatlari<br>4-4 |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | O'zbek adabiyoti | 120 | 120 | 240 |

2.

**I. Fanning mazmuni.**

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni adabiyotning tarixiy asoslari, tarixiy o'tmishda ijod qilgan shoir va yozuvchilarning ijod namunalari (tushunchalar, nazariyalar va ularning isboti, sohaning amaliy masalalarini yechish usullari va boshqalar) bilan tanishtirishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, tarixiy adabiyotning nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Fanni o'qitishning vazifasi – talabalarga adabiyot tarixi fanining ahamiyati, o'zbek adabiyotining tarixiy asoslari va nazariy masalalariga oid bilim va tushunchalar berish, tarixiy adabiyotning mavzui, mazmun-mundarijasi, hozirgi kun bilan bog'liqligi va boshqa sohalar bilan munosabati, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish va natijada talabalarda o'zbek adabiyotining asoslari, og'zaki va yozma adabiyotning tarixiy shakllanish bosqichlari kabilarni bilish, o'z fikrini hayotiy misollar orqali asoslash, o'rganganlarini amalda qo'llay olishga o'rgatishdir.

**II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**
**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Pahlavon Mahmud hayoti va ijodi**

Pahlavon Mahmudning hayoti va ijodiy merosi. Shoir ruboiylarining mavzu doirasi, timsollar tarkibi, g'oyaviy-falsafiy, badiiy xususiyatlari va mazmun-mohiyati.

**2-mavzu. Rabg'uziy hayoti va ijodi.**

Rabg'uziy va uning "Qissasi Rabg'uziy" asari. Asarning mavzusi, mundarijasi. Asardagi qissa va hikoyatlar, ularning mazmun-mohiyati, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

**3-mavzu. Xorazmiy va Sayfi Saroyi hayoti va ijodi.**

Xorazmiy va uning "Muhabbatnoma" asari. Asar turkiy adabiyotda "noma" janrining ilk namunasi ekanligi. Asarning janrlar tarkibi, badiiy xususiyatlari.

Sayfi Saroyi hayoti va ijodiy merosi. Sayfi Saroyi lrik shoir, dostonnavis va tarjimon; she'riyati, "Suhayl va Guldursun" dostoni, "Guliston bit-turkiy" asari. Ularga xos g'oyaviy-badiiy xususiyatlar.

**4-mavzu. Durbek hayoti va ijodi.**

Durbek va uning "Yusuf va Zulayho" dostoni. Dostonning yaratilishi, obrazlar tizimi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

**5-mavzu. Haydar Xorazmiy hayoti va ijodi.**

Haydar Xorazmiy hayoti va ijodiy merosi."Gulshanul asror" va "Gul va Navro'z" asaralari.

**6-mavzu.Atoiy va Sakkokiy hayoti va ijodi.**

Atoiy hayotiga doir ma'lumotlar. Atoiy she'riyati, g'azallariga xos g'oyaviy-badiiy xususiyatlar.

Sakkokiy – g'azalnavis va qasidanavis shoir. G'azal va qasidalarida badiiy mahorat masalasi.

**7-mavzu. Lutfiy va Husayniy ijodi.**

Lutfiy hayoti va ijodini o'rganish manbalari. Lutfiyning ijodiy faoliyati. Lutfiy va Navoiy.

Husayniy – turkigo'y shoir. Navoiyning "Majolis un-nafois"ida Husayniy haqida. Navoiyning Husayniy devoniga doir fikrlari. Alisher Navoiy "Munojot"ida Husayniy shaxsining yoritilishi.

**8-mavzu. Navoiy lirikasi.**

Navoiy g'azallari va qit'alari tahlili. Ularning mazmun-mohiyati, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Ruboiy va tuyuqlari tahlili.

**9-mavzu. Navoiy - xamsanavis.**

Buyuk "Xamsa"ning yaratilishi. Sharqda xamsachilik an'anasi. Navoiy "Xamsa"sining jahon adabiyotida tutgan o'rni.

**"Hayrat ul-abror" dostoni.** Dostonning kompozitsion qurilishi, janr xususiyatlari. Uning axloqiy-ta'limiy, ma'rifiy-falsafiy doston sifatidagi ahamiyati.

**"Farhod va Shirin" dostoni.** Dostonning kompozitsion qurilishi., syujet yo'nalishi. Dostonda komil inson muammosi.

**10-mavzu.Navoiyning "Xamsa" asari tahlili.**

**"Layli va majnun" dostoni.** Dostonning syujet yo'nalishi va kompozitsion qurilishi. Dostonda ishq talqini.

**"Sa'bai sayyor" dostoni.** Bahrom shoh va oshiq. Shoh va darvesh hikmatining falsafiy yechimi. Doston hikoyalarining mushtarak jihatlari.

**"Saddi Iskandariy" dostoni.** Iskandar – Navoiy idealidagi adolatli hukmdor timsoli. Shoirning hikoyanavislik mahorati.

**11-mavzu. Navoiy - dostonnavis. "Lison ut-tayr" – falsafiy-majoziy doston.**

Dostonning kompozitsion qurilishi va janr xususiyatlari. Asosiy timsollar va

ularning majoziylik xususiyatlari.

"Mahbub ul-qulub" – axloqiy-ta'limiy asar. Shoirning komil inson va mukammal jamiyat haqidagi orzulari ifodasi. Asarning kompozitsion qurilishi va janr xususiyatlari, badiiyati.

**12-mavzu. Navoiy – adabiyotshunos. .**

"Majolis-un nafois" – turkiy tilda yaratilgan birinchi tazkira. "Mezon ul-avzon", "Mufradot" asarlari.

Navoiyning ilmiy-nasriy asarlari. Filologiyaga oid asarlar. Tarixiy mavzuda bitilgan nasriy asarlar. Epistolyar mavzudagi hamda o'z faoliyatiga oid asarlari. Zamondoshlari haqida bitilgan asarlar.

**13-mavzu. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va adabiy faoliyati.**

Bobur lirikasi. Shoir devonlari. Lirik merosining janr xususiyatlari, mavzu ko'lami. Obrazlar dunyosi. Badiiy tasvir vositalari.

**14-mavzu. "Boburnoma" asari tahlili.**

"Boburnoma" tarixiy-adabiy memuar asar. Asarning kompozitsion qurilishi va janr xususiyatlari, badiiyati.

**15-mavzu. Muhammad Solih va Xoja hayoti va ijodi.**

"Shayboniynoma" – tarixiy doston. Shoir hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar. "Shayboniynoma" dostonida tarixiy haqiqatning badiiy in'ikosi.

Xoja hikoyalari. "Miftohul-adl" va "Gulzor" to'plamlaridagi hikoyatlarning mavzu ko'lami, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Davr adabiyoti haqida yakunlovchi xulosa.

**16-mavzu. Mashrab va Xo'janazar Huvaydo ijodiy merosi**

Mashrab haqida ma'lumot beruvchi manbalar. "Devoni Mashrab" she'riy to'plami, o'ziga xos xususiyatlari, janr tabiati. "Qissai Mashrab"da shoir siymosi. Xo'janazar Huvaydoning ijodiy merosi va "Rohati dil" dostoni

**17-mavzu. Qo'qon adabiy muhiti. Amiriy hayoti va ijodi, Gulxaniyning ijodiy merosi**

Gulxaniy she'riyati va uning mazmun-mohiyati. "Zarbulmasal" asari. Masal janri xususiyatlari, asarning kompozitsiyasi, mazmun-mohiyati, g'oyaviy-badiiy jihatlari.

**18-mavzu.Jahon otin Uvaysiy va Mohlaroyim Nodira ijodiy merosi.**

Uvaysiy she'riyatida shoira dunyoqarashiga oid muhim qirralar: zamona va shoira shaxsiyati o'rtasidagi ziddiyatlarning badiiy ifoda etilishi. Nodira she'riyatida ruhiyat tasviri va ishq talqini

**19-mavzu. Xorazm adabiy muhiti. Muhammad Rahimxon II ning adabiy muhit rivojidagi o'rni. Munis ijodi**

Munisning lirik shoir, tarixchi, tarjimon, murabbiy va xattot sifatidagi ijodiy merosi. "Munis ul-ushshoq" devoni, janr tabiati, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari

**20-mavzu. Xorazm adabiy muhiti. Ogahiy ijodi**

Ogahiy hayoti va ijodi. "Ta'viz ul-oshiqin" devoni. Devon debochasidagi ma'lumotlar. Devonning janr tabiati, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Ogahiy – tarixchi va tarjimon.

**21-mavzu. XVII-XVIII asr adabiyoti. Nurmuhammad Nishotiy, Sayyodiy va Sayqaliy dostonlari haqida ma'lumot.**

Nishotiyning "Husnu Dil" dostoni va uning muqaddimasida muallif hayoti, dostonning yaratilish tarixiga doir ma'lumotlar. Sayyodiyning "Tohir va Zuhra", Sayqaliyning "Bahrom va Gulandom" dostonlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

**22-mavzu. Muqimiy ijodiy merosi**

Muqimiy hayoti va ijodiy merosi, janr xususiyatlari. Muqimiy she'riyatida xalqona ohanglar. Muqimiy hajviyoti va sayohatnomalari. Davriy o'zgarishlarning badiiy ijodda aks etishi.

**23-mavzu. Zokirjon Furqat ijodiy merosi**

Furqat she'riyatida an'ana va mahorat. Shoir publitsistikasi, romanlari va tarjima asarlari. Shoir masnaviylarida ma'rifatparvarlik g'oyalarining ifodasi.

**24-mavzu. Milliy uyg'onish (jadid) adabiyoti**

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot. "Usuli jadid" maktablari. Milliy matbuot. Yangi milliy teatr. Badiiy adabiyot. Adabiy tanqid. Badiiy tarjimachilik.

**25-mavzu. Maxmudxuja Behbudiy ijodi**

Behbudiy va Turkiston milliy matbuoti. Ijodiy merosi. "Padarkush" pyesasi. "Sayohat xotiralari", adabiy-estetik qarashlari.

**26-mavzu. Abdulla Avloniy hayoti va ijodi**

Avloniyshunoslik. Hayot sahifalari. Yangi maktablar va ijtimoiy faoliyat. Avloniy – aktyor, rejissyor, teatr badiiy rahbari, dramaturg, tarjimon va pedagog. Avloniy publitsistikasi.

**27-mavzu. Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi**

Fitratning adabiy-madaniy merosi. Fitrat publitsistikasi. Fitrat – adabiyotshunos olim. Fitratning ilmiy-nazariy qarashlari va jadidchilik g'oyalari. Fitrat dramaturgiyasi. Fitrat she'riyatida ozozdlik va shaxs erki motivlarining ifodalanishi. Fitrat hikoyalarida ramziylik.

**28-mavzu. Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va ijodi**
"Devoni Nihoniy" da o'zbek mumtoz adabiyoti an'analari. Hamza darsliklarida ma'rifatparvarlik. Hamza drammalari va ularda jadidchilik g'oyalarining ifodalanishi

**29-mavzu. Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi**
Jadidchilik va Abdulla Qodiriy hikoyalari. Hajviy asarlari. Birinchi roman- "O'tkan kunlar"ning yaratilishi. Qodiriy romanlarining turkiy xalqlar adabiyotiga ta'siri

**30-mavzu. Cho'lpon hayoti va ijodi**
Cho'lpon tarjimayi holi. Jadidchilik va Cho'lpon she'riyati. Hikoyalari. Drammalari. "Kecha va Kunduz" romani. Romanning o'zbek realistic nasri shakllanishi va taraqqiyotidagi ahamiyati.

### III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Pahlavon Mahmud ruboiynavis.
2. Pahlavon Mahmud ruboiylarining mavzular doirasi, timsollar tarkibi, g'oyaviy-falsafiy, badiiy xususiyatlari va mazmun-mohiyati.
3. Rabg'uziy va uning "Qissasi Rabg'uziy" asari. Asardagi qissa va hikoyatlar, ularning mazmun-mohiyati, g'oyaviy- badiiy xususiyatlari.
4. "Qissasi Rabg'uziy" asarida qissa va boshqa adabiy janrlar.
5. Sayfi Saroyining "Suhayl va Guldursun" asari.
6. "Yusuf va Zulayho" dostonida xalq og'zaki ijodi.
7. Atoiy g'azaliyoti.
8. O'zbek adabiyotida Atoiy ijodining o'rni.
9. Sakkokiy lirikasi.
10. Haydar Xorazmiy "Gulshan ul-asror" asaridagi hikoyatlarning g'oyasi, maqsadi.
11. Lutfiy lirikasi, janr xususiyatlari va mavzu ko'lami.
12. Navoiyning ilmiy-nasriy asarlari.
13. Bobur lirikasi. Boburning "Risolai aruz", "Volidiya" va "Mubayyin" asarlarining adabiy qiymati.
14. Husayniy devonlari.
15. Xoja hikoyalari. "Miftohul adl" va "Gulzor" to'plamlaridan hikoyatlarning mavzu ko'lami, g'oyaviy- badiiy xususiyatlari
16. Mashrab she'riyati tahlili. Huvaydo lirik shoir. "Rohati Dil" – didaktik doston.
17. Amiriy – zullisonayn shoir. "Zarbulmasal" badiiyati tahlili
18. Uvaysiy lirikasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, Nodira she'riyatida ishq talqini va ruhiyat tasviri
19. Munis she'riyati va g'azaliyoti tahlili
20. Ogahiy she'riyatida an'ana va mahorat
21. Nishotiyning "Husnu Dil" dostonida badiiylik
22. Muqimiy she'riyatida lirik qahramon va ruhiy-ma'naviy qiyofasi
23. Furqat lirikasida ma'rifatparvarlik g'oyalarining ifodasi.
24. "Xalq kitoblari"ning o'ziga xos xususiyatlari va badiiyati
25. M. Behbudiy hayoti va ijodi haqida
26. Avloniy ijodida ko'p qirralilik
27. Fitrat-adabiyotshunos. "Abulfayzxon" birinchi o'zbek tragediyasi
28. Hamza Hakimzoda Niyoziy – dramaturg
29. "Mehrobdan chayon" romanida tarixiylik va badiiylik
30. "Kecha va Kunduz" romanida xarakter yaratish mahorati

### Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. "Qissasi Rabg'uziy" dagi hikmatlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
2. "Muhabbatnoma" ning tematik-g'oyaviy xususiyatlari.
3. Pahlavon Mahmud ruboiylarining axloqiy-ta'limiy hamda falsafiy mohiyati.
4. Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostonida Yusuf obrazi.
5. Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostonida Zulayho obrazi.
6. Atoiy lirikasida hayot va sevgi mavzusi.
7. Sakkokiy-qasidanavis.
8. Lutfiy lirikasida yor va oshiq obrazlari.
9. Lutfiy lirikasida badiiy tasvir vositalari.
10. Lutfiy va Navoiy.
11. Alisher Navoiy ruboiylarida axloq-odob masalalari in'ikosi.
12. Navoiy – xamsanavis.
13. "Hayrat ul-abror" dostonining ta'limiy-didaktik xususiyatlari.
14. "Farhod va Shirin" dostonida ilm va hunar haqida.
15. "Layli va Majnun" dostonida ilohiy ishq mohiyati.
16. "Sa'bai sayyor" dostoni hikoyatlarining qiyosiy o'rganish.
17. "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar obrazi.
18. "Lison ut-tayr" – falsafiy-majoziy doston.
19. "Mahbub ul-qulub" axloqiy-ta'limiy asar.
20. Navoiy – adabiyotshunos.

21. "Mehr va Suhayl" hikoyasida bosh qahramon obrazi
22. Navoiyning ilmiy-nasriy asarlari.
23. Bobur lirikasi.
24. Bobur ruboiylarida g'urbat motivlari.
25. "Boburnoma"ning badiiy xususiyatlari.
26. "Boburnoma" da Movarounnahr shaharlarining badiiy tasviri.
27. "Boburnoma"ning o'zbek adabiyoti va madaniyatini o'rganishdagi ahamiyati.
28. "Boburnoma" da Hindiston tabiatining badiiy tasviri.
29. Muhammad Solih hayoti va ijodi. "Shayboniynoma" – tarixiy doston.
30. Xojaning san'atkorlik mahorati
31. Rahimbobo Mashrab ijodida falsafiylik
32. Xo'janazar Huvaydo ijodida o'ziga xoslik
33. Gulxaniy ijodida masallar badiiyati
34. Jahon otin Uvaysiy g'azallari mavzusi va tahlili
35. Mohlaroyim Nodira lirikasining janriy xususiyatlari
36. Munis Xorazmiy ijodiy merosi
37. Nishotiy hayoti va ijodi
38. Ogahiy tarixnavis
39. Zokirjon Furqat hayoti va ijodi
40. Publitsistika rivojida jaded ijodkorlarining o'rni
41. Avloniy drammalarida jadidchilik g'oyalari va davr fojeasi talqini
42. Fitrat prozasida davr illatlarining fosh qilinishi
43. Hamzaning "Salom ayting" turkum she'rlarini tahlil qilish
44. Abdulla Qodiriyning xarakter yaratish mahorati
45. Cho'lponning xarakter yaratish mahorati

3.

## VII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

- O'zbek adabiyotining tarixiy taraqqiyoti davomida so'z san'ati takomili, estetik ta'sirini his etish, jumladan, adabiy-badiiy matn ustida ishlash, badiiy matnlarda qo'llaniladigan tasviriy vositalar, she'riy san'atlar yuzasidan **bilimga ega bo'ladi**.
- Lug'at ustida ishlay olish, eski o'zbek yozuvi, arab, fors tillaridan xabardor bo'lish va muhim xulosalar yasay olish, o'zbek adabiyotining yuksak g'oyaviy-badiiy va ilmiy-nazariy bilimlarini o'rganishi uchun talabalar quyidagi **ko'nikmalarga ega bo'ladi:**
- o'zbek adabiyoti konsepsiyasining o'ziga xosligi;
- o'zbek mumtoz adabiyotining ifoda usullari;
- o'zbek adabiyoti namoyondalari ijodining yetakchi tamoyillari;
- o'zbek adabiyotining taraqqiyot bosqichlari;
- o'zbek adabiyotining yetakchi xususiyatlarini aniqlash;
- o'zbek adabiyotida jadidchilikning o'rnini belgilash;
- o'zbek adabiyotining yetuk namoyondalar hayoti va ijodini tavsiflash;
- o'zbek adabiyotining tarixiy-milliy, milliy-zamonaviy xususiyatlarini anglash;
- har bir ijodkorning o'zbek adabiyotida tutgan o'rnini aniqlash.

Bu esa talabalarda o'zbek adabiyoti nafosatini teran his qila olish va tahlil etish **malakasiga ega bo'lishlariga yordam beradi**.

4.

## VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar

5.

## IX. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.

6.

## X. Asosiy adabiyotlar:


1. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi - T.: "Sano-standart", 2017.
2. Djumayeva S., Botirova Sh. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. - T.: "Ishonchli hamkor", 2020.
3. Abdullayev H. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv uslubiy qo'llanma. - T.: "Cho'lpon", 2019.


## XI. Qo'shimcha adabiyotlar


1. Хожиахмедов А. Мумтоз бадиият малохати. – Т.: "Шарк", 1999.
2. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: "Ўзбекистон", 2008.
3. Normatov U. Nafosat gurunglari. – T.: Mumtoz so'z, 2010.
4. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T.: "Sharq", 2007.
5. Jabborov N. Adabiyot va milliy ma'naviyat. – T.: "Ma'naviyat", 2015.
6. Mirvaliyev S. O'zbek adiblari. – T.: "Yozuvchi", 1993.
7. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. – T.: "Universitet", 2006.
8. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: Шарк, 2004.
9. Xolikova N., Umaraliyev H. Komil inson, g'oya, talqin va tadrij. – T.: 2022.


### Axborot manbalari

http://www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi sayti

http:www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi sayti

| | |
|---|---|
| | www.natlib.uz – (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)<br>www.ziyonet.uz – Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portal<br>www.cspi.uz – Chirchiq davlat pedagogika universiteti rasmiy sayti |
| 7. | **Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024-yil "29" 08 1-sonli dagi qarori bilan tasdiqlangan** |
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sul:**<br>**A.Davlatova** – CHDPU, "O'zbek adabiyotshunosligi" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc) |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>**N.Jabborov** – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori<br>**A.U.Muydinova** – CHDPU, "O'zbek adabiyotshunosligi" kafedrasi o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori |